

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

С.Неъматжан, О.А.Акбаров, З.Ш.Нуридинов	
Коммуникативные качества речи	742
М.Т.Абдулаттоев	
О'zbek tilining funksional sintaksisi masalalari	746
А.Р.Косимов	
Формирование компетенций в изучении русского языка	750
Н.А.Қўлдасhev	
Ijtimoiy muloqotda o'zbek tilidan foydalanilish	754
X. Sharifiddinov	
Aforizm – falsafiy mushohadalar ifodasi	757
А.Г.Муҳиддинов	
Нейросемiotические механизмы идентификации новшества	760
М.А.Хусанова	
О'zbek tilshunosligida idiosil antropotsentrik yondashuv mahsuli sifatida	765
Е.И.Ибрагимова	
Аксиологик bahoning uslubiy xususiyatlari	768
Z.M.Sobirova	
Neyropsixolingvistik konsepsiyalar	771
G.Sh.Kaxxorova	
Til tizimida yordamchi so'zlarning o'rni va vazifalari	776



UO'K: 811.512.133`373.422

AKSIOLOGIK BAHONING USLUBIY XUSUSIYATLARI

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ АКСИОЛОГИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ

METHODOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AXIOLOGICAL ASSESSMENT

Ibragimova Extiyotxon Ismailovna 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada antroposentrik kategoriya hisoblangan aksiologik baho va uning olamning lisoniy manzarasini aks ettirishda tutgan ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan. Mazkur kategoriya haqidagi tilshunos olimlar fikriga munosabat bildirilgan.

Abstract

The article discusses the axiological assessment, which is an anthropocentric category, and its importance in reflecting the linguistic landscape of the world. The opinion of linguists about this category is expressed.

Аннотация

В статье рассматривается аксиологическая оценка, являющаяся антропоцентрической категорией, и ее значение в отражении языкового ландшафта мира. Высказано мнение лингвистов об этой категории.

Ключевые слова: аксиология, аксиолингвистика, аксиологическая оценка, лингвистическая оценка, субъективное и объективное отношение.

Kalit so'zlar: aksiologiya, aksiolingvistika, aksiologik baho, lingvistik baholash, subyektiv va obyektiv munosabat.

Key words: axiology, axiolinguistics, axiological evaluation, linguistic evaluation, subjective and objective attitude.

KIRISH

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tan olingandan so'ng ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Ajdodlarimizdan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarurligi, ona tilimizni har tomonlama mukammal o'rganishimiz, tilimizning beqiyos imkonlarini kashf etishga tinimsiz intilishimiz lozimligi, chunki o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi fani o'tgan davr mobaynida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Buni tilning barcha sathlari bilan bog'liq muammolarning o'rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko'rsatib turibdi. Bunga ko'p qirrali murakkab hodisa hisoblangan tildagi juda ko'p holatlar, uning bir-biriga ta'sir qiluvchi barcha elementlar insonning sotsial va ichki olami, borliqqa munosabati mexanizmlari bilan o'zaro aloqadorlikda harakat qilishi ma'lum. Inson aynan til sathi birliklari orqali uni o'rab turgan borliq va uning barcha qirralariga o'z munosabatini aniq va obrazli ifodalash, baho berish imkoniyatiga ega. Lisoniy baho, xususan, antroposentrik kategoriya hisoblanib, inson manfaatlarini aks ettirishga qaratilgan bo'ladi va ulardan ajralmagan holda ifoda etiladi. Shu o'rinda lisoniy bahoni A.A.Shmeleva "Baho haqida gap ketganda inson omili birinchi planga chiqadi", deb to'g'ri baholaydi. Baho kategoriyasi uzoq vaqt mobaynida faqat aksiologiya nuqtai nazaridan o'rnilgan, biroq keyingi yillarda bu masala tilshunoslar e'tiboriga tushdi va juda ko'p lingvistik tadqiqotlarning katta ahamiyatga ega bo'lgan obyektiga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunga kelib, "aksiologiya" termini tilshunoslik va madaniyatshunoslikda ham ilmiy atama sifatida qo'llanilmoqda.

TILSHUNOSLIK

Bahoning kategoriya sifatida ahamiyatga ega bo'lishi tilning turli xil funksiyalarida o'z aksini topishi bilan belgilanadi. N.D.Arutyunova, Y.M.Volf, M.S.Retunskaya singari tilshunoslar tilning pragmatik funksiyasi bilan bahoning ajralmas aloqasini tan oladilar, darhaqiqat, mazkur funksiya orqali so'zlovchining predmetga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishi ifoda etiladi. N.Y.Kuznetsova va Y.V.Shevchenkolar ham bahoning pragmatik yo'nalganligini o'z ta'riflarida: "baho – bu subyektning u yoki bu ehtiyoj va qiziqishlarini qondirish ko'nikmasiga ega bo'lgan obyektning mohiyat darajasini subyekt tomonidan aniqlash jarayoni va natijasi", - deb ta'kidlaydilar. A.A.Ivin bahoni tilning alohida funksiyasi sifatida ajratib, "o'rganilayotgan obyektga ijobiy, salbiy yoki neytral munosabat ifodalashda tildan foydalanadi", deb ta'kidlaydi. Y.N.Starikova va S.N.Kolesnik bahoning aksiologik kategoriyasini tilning nominativ funksiyasi bilan bog'laydi (modomiki, baho so'zning leksik ma'nosi yoki so'z birikmasi bilan ifodalanishi mumkin). Bahoning bunday qat'iy, muhimligi tilning universalligini yana bir bor isbotlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Baholash o'z mazmuni bilan subyektiv jarayon hisoblanadi. Lekin shuni aniqlash kerakki, subyektiv omil o'zining muhimligi va ahamiyati bilan obyektiv omildan ajralmagan holda yuzaga keladi. Baholashda subyektiv va obyektiv munosabat yaxlit, kompleks holda ishtirok etadi va ularning qaysi biri birlamchi ekanligini aniqlash biz uchun uncha ahamiyatga molik emas: bahoviy ifoda doimo subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglab turadi.

Modomiki, baholash, ko'pincha, obyektning ijtimoiy mohiyatini aks ettirar ekan, baholash muammosini suhbatdoshlarning aniq ijtimoiy munosabatlari bilan bog'lagan holda o'rganish kerak. Y.M.Volf bahoning u bog'liqligini alohida ta'kidlaydi. Umuman olganda, bahoning ijtimoiy bog'langanligini subyektning obyektiv tavsifiga qaratish mumkin. Chunki aynan u obyekt haqida odatdagi fikrlashni shakllantirib, umumiy baholash darajasini belgilaydi. Demak, o'zining alohida baholash shkalasi individning aksiologik yo'nalishini shakllantiradi. Biroq I.I.Kremixning quyidagi fikri bilan kelishish qiyin, qaysiki, obyektiv borliqning bahosi individual emas, balki jamoa, jamiyat qiymatlari tizimiga kiritilgan va amaliy faoliyat hamda jamoaviy amaliyot bilan belgilangan jamoaviy baho bo'lib hisoblanadi. Har bir inson uchun o'zining xususiy baholash darajasi muhim. U esa tashqi (umumiy, jamiyat bilan bog'langan) qiymatlar hamda ichki alohida individual baho tizimini birlashtirish natijasi bo'lib ifodalanadi. Shu bilan baho tilning verbal reaksiyasi ta'minlovchisi bo'lib, lingvistik variantlarning keng diapazoniga ega. Shunday qilib, baho ifodasi bir tomondan sotsiologik doirada o'z fikrini (ijobiy va salbiy) bildirish, ikkinchi tomondan subyektning individual ekstrolingvistik xarakteristikasi bilan (obyektga shaxsiy munosabati, sotsial mavqei, psixik xususiyatlari, ma'lumoti, tarbiyasi, kasbi, yoshi, hatto bahoni og'zaki ifodalash kayfiyatida) tayyorlangan. Baho masalasini muhokama qilishda o'zaro obyektiv va subyektiv munosabat muammosi bahoda qaysi faktor birlamchi – emotsional yoki ratsional ekanligi masalasi bilan chambarchas bog'langan. Bir qator chet el tadqiqotchilarining (Stevenson, Hare, Hudson) fikricha, bahoni aniqlovchi insonning voqelikka to'g'ridan-to'g'ri reaksiyasida emotsiya (hissiyot) birlamchi, nutqning ratsional tomoni ikkilamchi hisoblanadi. Rus tilshunoslaridan N.D.Arutyunova, Y.M.Volf, A.N.Baranovalar esa bunga boshqa tomondan yondashdilar, ya'ni ratsional baho aspektini birinchi o'ringa, emotsional komponentni ikkinchi o'ringa qo'yadilar, buning sababi shundaki, tabiiy tilda sof emotsional baho mavjud bo'lmaydi, chunki til doimo ratsional aspektni belgilaydi. O.N.Kastornova M.Volf izidan borib bahoning: emotsional (baholanayotgan obyektning hissiy qabul qilishni aks ettiruvchi subyektning bevosita reaksiyasi) va ratsional (kuzatilayotgan obyekt qiymatini mantiqan tahlil qilish) kabi ikki turini ajratgan. Shubhasizki, bevosita reaksiya - baholashda hissiy komponent baholash-fikrga nisbatan ancha aniq, lekin bizningcha, ratsional boshlanishni bartaraf qilish belgilamaydi (va aksincha – o'ylab ko'rilgan baholash fikrda aniq ifodalangan ratsional aspekt bilan bir qatorda doimo his-tuyg'u ishtirok etadi). Ma'lumki, turli ko'rinishdagi baholashda ratsional va emotsional baholarning nisbati o'zgaruvchan bo'lib, kontekstdan tashqarida ikki turdagi bahoni o'zaro farqlashning imkoniyati bo'lmaydi. Shu tufayli bahoni til orqali ifodalash uchun ratsional va emotsional aspektlarning muhimligi teng ekanligini belgilash maqsadga muvofiqdir. Demak, bahoni emotsional va ratsional kabi turlarga ajratish aniq tasnifga nisbatan ko'proq shartlilikka qaratiladi. Y.N.Starikova va S.N.Kolesnik uchta shartli baholash darajasini kuchsiz, o'rtacha va intensiv kabi turlarga ajratadi. Kuchsiz darajaning bahosi o'zining emotsionalligi va qat'iyligi bilan betaraf (neytral) darajaga yaqinlashadi. Odatda, ular hissiy baholash hamda

predmet mantiqiy mazmuniga ega bo'lgan leksik vositalar bilan ifoda etiladi. Intensiv darajadagi bahoda esa, ko'proq emotiv komponent ishtirok etadi; ular yaqqol emotsional mazmunga ega bo'lgan leksik vositalar bilan ifoda etiladi va ko'p marotaba turli xil til darajalari bilan kuchaytiriladi. Umuman, bahoning mazkur shartli darajalari bahoning bir xil emasligini va tilda turli xil paydo bo'lishini namoyish etadi, bundan tashqari, baholash aspektini shakllantirishda leksik, morfologik, sintaktak va intonatsion til darajalarining birliklari ishtirok etadi. Ta'kidlab o'tilganidek, tildagi baho gaplar-fikrlar shaklida moddiylashadi, lekin aynan qaysi bir fikrlarni, xususan baholovchi deb tan olish masalasi ma'lum bir darajada bahslashga asos bo'ladi. M.Y.Blox va N.V.Ilina "baholash konstruksiyasi deganda, baxolash semantikasining leksik birligiga ega bo'lgan har qanday tuzilma emas, balki predikativ holatga ega bo'lgan leksik birlik tan olinadi", boshqa hollarda "baho.... subyekt tomonidan fikrning asosiy mantiqiy vazifasiga asoslanib birlashtirilgan bo'lib emas, balki ma'lum bo'lgan aniq dalil sifatida uzatiladi", – deb ta'kidlaydi.

Lingvistik bahoni tor ma'noda ifoda etish ajratib olingan fikr baholash bo'lib hisoblanmaydi, chunki baholash sifatleri predikativ o'rinda bo'lmaydi. Shunday bo'lsada, bu yerda baho mazkur fikrlashning mazmun markazi sifatida ishtirok etadi. Bu holat quyidagi predikativ o'rniga baho leksema qo'yilgan gap bilan tasdiqlanadi.

XULOSA

Xullas, bayon etuvchi tomonidan qo'llanilayotgan tilning rang-barang vositalaridan foydalanib, shuni ta'kidlash lozimki, baholash yetakchi fikrni ajratib olishda muhim sanalib, leksik mazmuniga ega sintaktik tuzilma emas, balki fikrning kommunikativ maqsadi, uning mazmun masalasi hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, biz bahoning quyidagi umumiy ta'rifini bermoqchimiz: baholash – bu subyektning atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etuvchi hamda obyektiv va subyektiv omillar yig'indisi asosida tavsflangan fikr hisoblanadi, modomiki, bunda baho asosiy kommunikativ mazmun sifatida ishtirok etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кузнецова Н.Е., Шефченко Е.В. Язык. Текст. Стил: сб. науч. тр. / Курганский гос. ун-т.-Курган, 2004, стр.71.
2. Ивин А.А. Теория аргументации / <http://www.bolshe.ru/book/id=2454-page>.
3. Шмелёва А.А. Оценочность в прагматике высказывания / Шмелёва А.А. Структурно-семантические, когнитивные, прагматические и другие аспекты исследования единиц разных уровней. / Бирский гос. пед. ин-т.-Бирск, 2004. Стр.112, 109-114с.
4. Блох М.Я. Структура и семантика оценочной конструкции. МГПИ. – М, 1986, стр.15, 14-23с.